

Shavkat Mirziyoyev: Har bir islohotda o'qituvchilar ko'z oldimda bo'ladi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimizning ijtimoiy siyosati har bir mahallaga kirib borish va aholi talabini manzilli hal etishga qaratilgan. Qarshi tumanidagi Yangi Batosh mahallasida ham infratuzilma izchil rivojlantirilmoqda. 2021-yilda tashkil topgan mahalla bo'lgani bois bu yerda maktab yo'q edi. 500 dan ortiq o'g'il-qiz 10 kilometr masofadagi maktabga qatnardi.

Yaqinda bu yerda yangi maktab qurib bitkazildi. Prezidentimiz mahallaga tashrifi chog'ida uni kirib ko'rdi.

Maktab 660 o'rinli. O'ttizdan ortiq sinfxonalar, kutubxona, faollar zali, oshxona, STEM laboratoriyasi, kompyuter xonasi va kasbga yo'naltirish xonalari mavjud. Ochiq va yopiq sport maydonchalari, yo'l harakati xavfsizligi yo'laklari tashkil etilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda yoshlarni kamida ikkita chet tili va bitta zamonaviy hunarga o'rgatish maktab ta'limidagi asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Yangi maktabda ham bunga sharoit yaratilgan. Maxsus jihozlangan xonalarda o'quvchilar tikuvchilik, zargarlik, pazandachilik, sartaroshlik, elektrsozlik, kompyuter va mobil telefonlarga xizmat ko'rsatish, robototexnika bo'yicha kasb sirlarini o'rganadi.

Davlatimiz rahbari o'quvchilar bilan muloqotda bo'ldi.

- Shunday sharoit yaratayapmizki, o'quvchilar maktabdan chet tillarini va hunar o'rganib chiqadi. 11-sinf hayot yo'li sinfi bo'ladi. Agar har bir yosh shunday o'qib, jamiyatda o'z o'rnini topsa, O'zbekistonimizga mustahkam zamin bo'ladi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident shu yerda qashqadaryolik o'qituvchilar bilan suhbatlashdi.

- Har bir islohotda, qaror qabul qilishda o'qituvchilar ko'z oldimda bo'ladi, - dedi davlat rahbari. - Sir emas,

ilgari bolalar uch oylab paxtaga chiqarilardi. Birgina Qashqadaryoda 155 ming o'quvchi o'rni yetishmasdi. Buning uchun viloyatga 1 trillion mablag' ajratildi. 215 ta maktab qurildi. Bugun Qashqadaryo maktablar soni bo'yicha respublikada birinchi o'rinda. O'qituvchilarning oylik maoshlari ham oshirildi. Albatta, bularni yana davom ettiramiz. Lekin asosiysi - sifat bo'lishi kerak. Bu avvalo o'qituvchilarning bilimiga, dunyoqarashiga, fidoyiligiga bog'liq.

Uchrashuvda pedagoglar o'z faoliyati haqida so'zlab, fikr va takliflarini bildirdi.





Manba